

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KREATIV KOMPETENTLIKNI  
BAHOLASH HAMDA RIVOJLANTIRISH**

**ОЦЕНКА И РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ  
УЧИТЕЛЕЙ**

**ASSESSMENT AND DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCE IN  
FUTURE TEACHERS**

Najmuddinova Saodat Abduvohid qizi

Farg'onan davlat universiteti Pedagogika yo'naliishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** mazkur maqolada, bo'lajak o'qituvchilar uchun kreativ kompetentlikni baholash mezonlari hamda kreativ kompetentlikni rivojlanishiga uchun treninglar va seminarlar haqida keltirib o'tilgan. Shu bilan birga o'qituvchi sifatida ijodiy ko'nikmalarni mustahkamlash strategiyalari yuzasidan ham ma'lumotlar keltirilgan.

**Аннотация:** В статье рассматриваются критерии оценки творческой компетентности будущих учителей, а также тренинги и семинары по развитию творческой компетентности. В то же время предоставляется информация о стратегиях развития творческих навыков учителя.

**Abstract:** This article discusses the criteria for assessing creative competence for prospective teachers, as well as training and seminars for developing creative competence. It also provides information on strategies for strengthening creative skills as a teacher.

**Kalit so'zlar:** kreativ, kompetentlik, baholash mezonlari, kreativ natija, kreativ muhit.

**Ключевые слова:** креатив, компетентность, критерии оценки, творческий результат, творческая среда.

**Keywords:** creative, competence, evaluation criteria, creative result, creative environment.

**KIRISH**

Kreativlik—shaxsning muammoli vaziyatlardan tafakkuri orqali, takrorlanmas yo'l bilan chiqib ketishi, unga ijodiylik bilan yondasha olish qobiliyati hisoblanadi.

Kreativlik tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma'nosini anglatadi. Haqiqattan esa yangi orginal, sayqallangan moddiy va ma'naviy bog'liliklarni yaratishdir. Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligiga uning fikridagi, muloqotidagi, alohida faoliyat turidagi ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'rif berish mumkin.

“Komponentlik” tushunchasining mohiyati—bozor munosabatlari sharoitida, mehnat bozorida ustuvor o'rinni egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy komponentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, komponentlik nima? “Komponentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixolog nuqtai nazaridan komponentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Umumta'lim maktablarida o'qituvchilarning kasbiy komponentligini shakllantirish—bu ijodiy rivojlanish, pedagog atrofda o'zgarishlarga tez moslasha olish va boshqarish, tez kirishish

qobiliyati, jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy rivojlanishi pedagogning kasbiy darajasiga bog’liq. O’qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishda pedagog hamda texnik-texnologik muammoli vaziyatni, pedagogik jarayonni hosil qilishga imkon beruvchi sharoitlarning to’plami sifatida qayd etiladi.

Bo’lajak o’qituvchilar uchun kreativ kompetentlikni baholash mezonlari o’qituvchi kasbiy tayyorgarligining muhim qismini tashkil etadi. Ushbu mezonlar, asosan, quyidagi yo’nalishlarni qamrab oladi:

■ Ijodiy fikrlash qobiliyatini baholash. Muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlar: bo’lajak o’qituvchi noan’anaviy va ijodiy yechimlarni taklif eta olish. O’zgacha g’oyalalar yaratish qobiliyati: yangicha yondashuv va loyihalarni ishlab chiqish. Fikrlash moslashuvchanligi: turli sharoitlarga moslashib, ijodkorlik bilan javob berish qobiliyati.

■ Pedagogik jarayonda kreativlik. Dars dizaynida kreativ yondashuvlar: dars rejasini qiziqarli va samarali usullarda tuzish. O’qitish metodlarini yangilash: an’anaviy usullarga nisbatan yangicha va interaktiv metodlarni tanlash. O’quvchilarni qiziqitira olish: ijodiy o’yinlar va mashg’ulotlar orqali o’quvchilarni jalg’etish.

■ Tehnologiyalardan foydalanish qobiliyati. Innovatsion tehnologiyalarni qo’llash: darslarda raqamli vositalar va platformalardan ijodiy foydalanish. Multimedia resurslarni yaratish: o’quvchilar uchun visual va interaktiv o’quv materiallarini ishlab chiqish. Sun’iy intellekt va boshqa zamonaviy tehnologiyalarni o’rgatish: o’qitishda kreativ imkoniyatlarni kengaytirish.

■ Kreativ kompetentlikni jamoaviy ishlarda qo’llash. Hamkorlikda ishlash ko’nikmalari: jamoada kreativ fikrlarni rivojlantirish va muvofiqlashtirish. O’quvchilar va o’qituvchilar bilan aloqalar: jamoaviy loyiha va vazifalarni ijodkorlik bilan boshqarish. Madaniyatlararo muloqot: turli madaniy va ijtimoiy muhitlarda kreativ yondashuvni qo’llash.

■ Ijodiy o’zini rivojlantirish. Yangiliklarga ochiqlik: yangi bilim va tajribalarni o’zlashtirishga bo’lgan intilish. Ijodiy-tanqidiy fikrlash: o’z ishlari va boshqalarning ishlariga ijodiy baho bera olish qobiliyati. Hayot davomida o’qish: innovatsion bilimlarni izlab topish va doimiy o’rganishga moyillik.

■ Pedagogik loyihalar va ularning ijodiy natijalari. Ijodiy yondashuv asosidagi dars loyihalari: samaradorlikni hamda o’quvchilar qiziqishini oshirish. O’quv jarayonidagi natijalar: o’quvchilarning ijodiy rivojlanishi va natijalar bilan bog’liq baholash mezonlari. Amaliyotda innovatsion g’oyalarni tatbiq etish: yangi yondashuvlarni amalgalash oshirish.

■ Kreativ liderlik va tashabbuskorlik. Loyihalarni baholash qobiliyati: yangi tashabbuslar va kreativ loyihalarni ishlab chiqish. Muammolarga ijodiy yechim topish: tashabbuskorlik va mas’uliyatni ijodiy yondashuv bilan birlashtirish. Ilhomlashtirish qobiliyati: jamoada va o’quvchilar orasida ijodiy fikrlashni rag’batlantirish.

Bu mezonlar bo’yicha baholash bo’lajak o’qituvchilarni kelajakda ijodiy, innovatsion va o’ziga xos yondashuvlar bilan faoliyat yuritishga tayyorlashga yordam beradi. Baholash jarayonida turli vositalar—testlar, amaliy mashg’ulotlar, kuzatish va tahlil ishlatilishi mumkin.

Bo’lajak o’qituvchilar va mutaxassislar uchun kreativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan treninglar va seminarlar o’z ichiga interaktiv usullar, amaliy mashg’ulotlar va yangi yondashuvlarni oladi. Amalga oshirilgan treninglar va seminarlar bo’lajak o’qituvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularni yangi ta’lim standartlariga mos ravishda tayyorlashda muhim rol o’ynaydi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Kreativ kompetentlik faoliyatini rivojlantirishda ilmiy-texnik ma’lumotlar bilan tanishish muhim o’rin tutadi. O’quvchilarga axborotnomalar, ilmiy atamalar bo’yicha ma’lumotlar, ixtirochilik va patentshunoslik materiallari haqida ma’lumotlar berib borish muhim manba vazifasini o’taydi. Axborot texnologiyalari va patentshunoslik sohasidagi mutaxassislar bilan

yaqindan hamkorlik qilish, shu sohalarga oid davriy nashrlar bilan muntazam tanishib borish o'zining ijobjiy natijalarini beradi.

Malakaga ega o'quvchilarda ijodkor mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan bir qatorda innovatsion g'oyalalar va texnologiyalarning muhim manbaini shakllantirishni talab etadi. Bu ishda kreativ kompetentlik tushunchasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini ilmiy-texnik bilimlar hamda ta'lif-fan-ishlab chiqarish integratsiyasi asosida kreativ kompetentlik mahsulini intellektual mulk sifatida yaratishga qaratilgan faoliyat jarayoni sifatida qabul qilindi.

Fikrimizcha, umumiy o'rta ta'lif maktabi o'quvchilarida kreativ kompetentlik asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash, ishlab chiqarish va soha texnologiyalarini yangilanib borish mexanizmlarini o'zlashtirish, o'zining kelgusi faoliyati dinamikasini tasavvur qilish, tadbiqiy bilimlarni o'zlashtirish ahamiyatini anglash, o'zining keyingi faoliyati yo'nalishini aniqlashtirish, faol amaliy ish olib borish tajribasini egallash hamda ilmiy axborotlar bilan ishlash malakasini shakllantirish imkoniyatlarini yaratadi. Pedagog o'quvchilar bilan o'zaro muloqoti jarayonida albatta ularning qadriyatlarini tizimini, o'zini o'quvchilarda-ijodiy rivojlantirishga intiluvchanligi hamda onglilik darajasini e'tiborga olishi lozim. Inson yuksak qadriyatlar hamda g'oyalarga asoslanmas ekan, shaxsiy sifatlari hamda o'quvchilarda ijodkorlik mahoratini rivojlantirish jarayonlari ahamiyatini anglab yetmaydi, oqibatda pedagog va o'quvchining o'zaro hamkorlikdagi ijodkorligi to'laqonli amalga oshmasligi mumkin. Shaxs individual rivojlanishining muhim omillaridan biri uning yoshiga bog'liq bo'lgan xususiyatlaridir. CHunki, taraqqiyotning har bir yosh bosqichi o'zining rivojlanish omillariga, qonuniyatlariga va o'zgarishlariga ega bo'lib, ular shaxsning xarakteri, temperamenti, qobiliyati va bilish jarayonlariga bevosita ta'sirini o'tkazadi. Shaxsning yosh davrlari ichida o'smirlik davri eng murakkab va shu bilan birga muhim taraqqiyot bosqichidir. O'quvchi o'g'il va qizlar hayoti hamda faoliyatining yangi sharoiti, ularning faol o'quv ijtimoiy, mehnat faoliyatları bo'lg'usi mutaxasis shaxsining shakllanishida o'z ta'sirini o'tkazadi. SHaxs kreativ kompetentlikini tashkil qilishda faqatgina bitta, eng asosiy xususiyatga e'tibor berish bilan cheklanib qolish belgilangan maqsadlarga erishish imkonini bermaydi. SHu sababli o'smir shaxsining barcha sohalardagi faoliyat ko'rsatkichlarini umumiy majmua sifatida qarab, talab etilayotgan xususiyatlar salmog'ini oshirishga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Amalga oshirilgan psixologik tadqiqotlar tahlili asosida kreativlik muammosining, asosan, to'rt yo'nalishda o'rganilganligi aniqlandi, ya'ni: kreativlik jarayon sifatida; kreativlik natija sifatida; kreativlik qobiliyat sifatida; kreativlik shaxsning xususiyati sifatida. Bilim olishdagi tizimlilik va izchillik nazariya va amaliyotning birligi, Davlat ta'lif standartlari ta'lif-tarbiya jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish bilan ta'minlanadi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'qituvchi sifatida ijodiy ko'nikmalarini mustahkamlash ta'lif sifatini oshirish, o'quvchilarni qiziqtirish va dars jarayonini yanada samarali qilish uchun muhimdir. O'qituvchilarning ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi strategiyalarni aytib o'tishimiz mumkin: ijodiy fikrlashni rivojlantirish, innovatsion tehnologiyalarni qo'llash, loyiha asosidagi ta'lifni joriy qilish, shaxsiy rivojlanishga e'tibor berish, dars jarayonini boyitish, ijodiy hamkorlik va tarmoq tuzish, kreativ muhit yaratish, o'z-o'zini baholash va takomillashtirish. ushbu strategiyalarni qo'llash orqali o'qituvchi o'zining ijodiy qobiliyatlarini mustahkamlab, ta'lif jarayonini samarali va qiziqarli qilishga erishadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy va innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash zamonaviy ta'lif tizimining asosiy maqsadlaridan biridir. Kreativ kompetentlik o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligidgi muhim ko'nikma bo'lib, uning rivojlanishi ta'lif sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlash uchun ularning kreativ kompetentligini baholash va rivojlantirish bo'yicha maxsus yondashuvlar qo'llaniladi. Ularga quyidagilarni misol qilib aytishimiz mumkin:

■ Kreativ kompetentlikni baholash: bo'lajak o'qituvchilarni kreativ kompetentlikka baholash va ularning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish jarayonida asosiy bosqich hisoblnadi.

■ Amaliy natijalar va monitoring: kreativ kompetentlikni rivojlantirish jarayonini muntazam monitoring qilish uning samaradorligini ta'minlaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetentlikni baholash va rivojlantirish pedagogik faoliyatning muhim yo'nalishi bo'lib, bu jarayon o'qituvchilarining ijodkorlik qibiliyatlarini rivojlantirish orqali ta'lim jarayonining innovatsion va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Bu maqsadda baholash mezonlari, treninglar, tehnologiyalar va jamoaviy ishlarni uyg'unlashshtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### XULOSA

Xulosa o'mida shuni aytish mumkinki, har bir fan va mavzuning yoritilish jarayoni, avvalo, talaba yuqori darajali bilim olishi va yuqori kasbiy kompetentligini shakllantirishga qaratish ularning kelgusida yuqori salohiyatlari va raqobat bardosh kadrlar bo'lib yetishishlariga yordam beradi. Bu, avvalo, jamiyatni rivojlantirishga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Zero, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, avvolo, kelgusida salohiyatlari yoshlar yetishib chiqishini ta'minlaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.T.Uluxanov, G.A.Xusayinova, S.Q.Ubaydullayev. "O'quvchilarning kreativ kompetentligini shakllantirish mezonlari". 2021-yil.
2. O.A.Abdurashitov. "Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligi". 2023-yil.
3. Z.D.Rasulova. "Bo'lajak o'qituvchilar kreativ kompetentligini rivojlantirish mazmuni". 2023-yil.
4. N.N.Azizzoxo'jayeva. Pedagogik tehnologiya va ped mahorat. T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2003-yil.
5. K.Davlatov, A.I.Vorobej, I.Karimov. Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi. T.:O'qituvchi. 1992-yil.
6. J.D.Saidov, G.A.Elmurodova, M.M.Rustamova. "Talabalarning ma'lumotlar bazasini yaratish bo'yicha bilimlarini baholash mezonlari". 2024-yil.
7. Wikipediya.